O'ZBEKISTONDA DAVLAT AUDITI TIZIMINING STRATEGIK TRANSFORMATSIYASI: INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR VA RAQAMLI MONITORINGNING STRATEGIK AHAMIYATI

Turabov Baxodir To'xtamishovich

Ichki audit boshqarmasi boshlig'i,
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
i.f.d., prof. v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrdagi PF–252-son Farmoni¹ doirasida davlat auditi va moliyaviy nazorat tizimida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotda INTOSAI xalqaro standartlarining milliy audit amaliyotiga integratsiyasi, vazirlik va idoralarda yangi joriy etilayotgan “Bosh inspektor” lavozimi hamda masofaviy nazoratda sun'iy intellekt va kosmik monitoring texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari ilmiy nuqtayi nazardan ko'rib chiqilgan. Maqolada davlat mablag'lari sarflanishi ustidan nazoratning yangi, shaffof va natijaga yo'naltirilgan arxitekturasini yaratish bo'yicha nazariy takliflar hamda amaliy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: davlat auditi, Hisob palatasi, INTOSAI, raqamli monitoring, samaradorlik auditi (performance audit), Bosh inspektor, moliyaviy nazorat, korrupsiyaga qarshi kurash, kosmik monitoring.

Abstract. This article provides a systematic analysis of the fundamental transformations in the state audit and financial control system within the framework of the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. UP–252, dated December 18, 2025. The study scientifically examines the integration of INTOSAI international standards into national auditing practices, the newly established “Chief Inspector” position within ministries and agencies, and the prospects of utilizing artificial intelligence (AI) and satellite monitoring technologies in remote oversight. The article elaborates on theoretical proposals and practical conclusions aimed at creating a new, transparent, and results-oriented architecture for controlling the expenditure of public funds.

Key words: state audit, Chamber of Accounts, INTOSAI, digital monitoring, performance audit, Chief Inspector, financial control, anti-corruption, satellite monitoring.

Аннотация. В данной статье проводится системный анализ коренных преобразований в системе государственного аудита и финансового контроля в рамках Указа Президента Республики Узбекистан № УП–252 от 18 декабря 2025 года. В исследовании с научной точки зрения рассматриваются вопросы интеграции международных стандартов INTOSAI в национальную аудиторскую практику, введение новой должности «Главного инспектора» в министерствах и ведомствах, а также перспективы использования искусственного интеллекта и технологий космического мониторинга в сфере дистанционного контроля. В статье сформулированы теоретические предложения и практические выводы по созданию новой, прозрачной и ориентированной на результат архитектуры контроля за расходованием государственных средств.

Ключевые слова: государственный аудит, Счётная палата, INTOSAI, цифровой мониторинг, аудит эффективности (performance audit), Главный инспектор, финансовый контроль, борьба с коррупцией, космический мониторинг.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar sharoitida davlat byudjeti mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanish nafaqat iqtisodiy, balki milliy darajadagi muhim va dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga asoslangan islohotlarning yangi bosqichiga qadam qo'yar ekan, davlat moliyaviy nazorati tizimini ham ushbu zamonaviy talablar asosida izchil takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 18.12.2025 yildagi PF-252-son <https://lex.uz/uz/docs/-7926706>



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrda "Davlat auditi va moliyaviy nazorati faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-252-son Farmoni² mazkur yo'nalishdagi muhim strategik hujjatlardan biri hisoblanadi. Ushbu hujjatda moliyaviy nazorat tizimini an'anaviy "aniqlovchi" (detective) yondashuvdan preventiv (oldini oluvchi) hamda samaradorlikka yo'naltirilgan (performance-based) boshqaruv modeliga bosqichma-bosqich o'tkazish vazifalari belgilangan.

Mazkur farmonning ahamiyati shundaki, unda oliy audit organi — Hisob palatasi faoliyatining xalqaro standartlarga mos mustaqilligini ta'minlash, nazorat jarayonlarini keng qamrovli raqamlashtirish hamda soha mutaxassslarining professional salohiyatini yanada rivojlantirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan. Shuningdek, farmon bilan joriy etilayotgan yangi institutsional mexanizmlar, jumladan vazirlik va idoralarda "Bosh inspektor" lavozimining tashkil etilishi hamda kosmik monitoring texnologiyalaridan foydalanish davlat nazoratining zamonaviy, texnologik va tizimli modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — PF-252-son Farmonda³ belgilangan institutsional o'zgarishlarning davlat boshqaruvi samaradorligiga ta'sirini ilmiy asoslash, xalqaro audit standartlari (ISSAI) bilan uyg'unlik darajasini aniqlash hamda amalga oshirilayotgan islohotlarning kutilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat auditi tizimini takomillashtirish masalalari xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazorati tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy asoslar Prezidentning PF-252-son Farmonida⁴ o'z aksini topgan bo'lib, unda audit tizimini raqamlashtirish, institutsional islohotlarni amalga oshirish hamda samaradorlik auditini joriy etish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan.

Xalqaro miqyosda esa davlat auditining metodologik asoslari INTOSAI tomonidan ishlab chiqilgan ISSAI standartlari hamda Mexiko deklaratsiyasi (INTOSAI P-10) orqali belgilab berilgan bo'lib, ular oliy audit organlarining mustaqilligi va audit faoliyatining shaffofligini ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek, World Bank tomonidan ishlab chiqilgan PEFA baholash tizimi davlat moliyasini boshqarish samaradorligini baholashning muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda davlat auditi tizimining raqamlashtirilishi, sun'iy intellekt va masofaviy monitoring texnologiyalarini joriy etish orqali nazorat mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada davlat auditi tizimi samaradorligi va shaffofligini oshirish bo'yicha yangi ilmiy yondashuvlar shakllanmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv (systematic approach) va qiyosiy-huquqiy tahlil (comparative legal analysis) metodlari tanlab olindi. PF-252-son Farmon doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarni baholash maqsadida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

1. Xalqaro standartlar bilan qiyoslash (benchmarking).

O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan yangi audit arxitekturasini Oliy audit organlarining xalqaro tashkiloti — INTOSAI tomonidan qabul qilingan ISSAI (International Standards of Supreme Audit Institutions) standartlari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Xususan, Mexiko deklaratsiyasi (INTOSAI P-10)da belgilangan audit mustaqilligi tamoyillari Farmonda nazarda tutilgan Hisob palatasini tashqi xalqaro baholashdan o'tkazish talablari bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganildi.

2. Induktiv va deduktiv mantiq usullari.

Deduktiv yondashuv orqali davlat auditi tizimidagi umumiy strategik maqsadlardan — korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish, shaffoflikni oshirish va moliyaviy intizomni mustahkamlash kabi vazifalardan — aniq institutsional mexanizmlarga, jumladan vazirlik va idoralarda "Bosh inspektor" lavozimini joriy etish hamda kosmik monitoring texnologiyalaridan foydalanishga o'tish jarayoni tahlil qilindi. Induktiv yondashuv esa ayrim sohalarida, masalan yo'l qurilishi tizimida qo'llanilayotgan raqamli nazorat tajribalarining umumiy iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini umumlashtirish imkonini berdi.

3. Institutsional tahlil.

Davlat boshqaruvi tizimida shakllanayotgan yangi subyektlar — "Bosh inspektor" instituti hamda "Davlat auditi oliy maktabi"ning o'rni, ularning boshqa davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik mexanizmlari institutsional iyerarxiya nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Ushbu yondashuv nazorat organlari faoliyatining mustaqilligi, samaradorligi hamda boshqaruv tizimidagi muvofiqlik darajasini ilmiy jihatdan baholash imkonini berdi.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 18.12.2025 yildagi PF-252-son <https://lex.uz/uz/docs/-7926706>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 18.12.2025 yildagi PF-252-son <https://lex.uz/uz/docs/-7926706>

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 18.12.2025 yildagi PF-252-son <https://lex.uz/uz/docs/-7926706>



4. Raqamli transformatsiyani modellashtirish.

Farmonda nazarda tutilgan “masofaviy audit” tizimi hamda sun’iy intellekt elementlarini qo’llash imkoniyatlari ma’lumotlar bazalarini integratsiyalash modeli (data integration model) asosida o’rganildi. Tadqiqotda inson omilining kamayishi darajasi raqamli monitoring samaradorligini baholovchi muhim ko’rsatkichlardan biri — KPI (Key Performance Indicators) sifatida talqin qilindi.

5. Normativ-huquqiy hujjatlarni qiyosiy tahlil qilish.

PF–252-son Farmon⁵ qoidalari amaldagi “Davlat auditi to’g’risida”gi Qonun hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan o’zaro uyg’unlik nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Shuningdek, mazkur hujjatning audit tizimini takomillashtirish, huquqiy mexanizmlarni yanada rivojlantirish hamda qonunchilik bazasini mustahkamlashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan baholandi.

Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining xolisligi (objectivity) va ilmiy asoslanganligini ta’minlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Farmon matni hamda unga ilova qilingan “Yo’l xaritasi” tahlili shuni ko’rsatadiki, O’zbekistonda davlat auditi tizimi endilikda to’rtta strategik ustun asosida bosqichma-bosqich qayta shakllanmoqda.

3.1. Oliy audit organining xalqaro tan olinishi va “Peer Review” amaliyoti

Farmonning muhim yangiliklaridan biri — Hisob palatasi faoliyatini har besh yilda kamida bir marta INTOSAI (Oliy audit organlarining xalqaro tashkiloti) metodologiyasi asosida xalqaro tashqi baholashdan o’tkazish tartibining joriy etilishidir.

Ilmiy nuqtayi nazardan, ushbu jarayon “auditning auditi” mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Mazkur yondashuv quyidagi natijalarga xizmat qiladi:

- milliy audit metodologiyasining xalqaro ISSAI standartlariga muvofiqligini tasdiqlash;
- davlat mablag’lari sarfi ustidan nazorat qiluvchi organing siyosiy va funksional mustaqilligini xalqaro hamjamiyat oldida namoyon etish;
- O’zbekiston Respublikasining xalqaro investitsiyaviy jozibadorligini oshirish hamda davlat moliya boshqaruvi (PEFA) reytinglaridagi o’rnini yanada mustahkamlash.

3.2. “Bosh inspektor” instituti: nazoratning vertikal va preventiv modeli

2026-yil 1-apreldan boshlab joriy etilishi nazarda tutilgan “Bosh inspektor” lavozimi davlat boshqaruvi tizimida samarali moliyaviy nazoratni ta’minlashga qaratilgan muhim institutsional mexanizm sifatida baholanadi.

Mazkur institutning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Bevosita bo’ysunuv. Bosh inspektor vazirlik yoki idora tarkibida faoliyat yuritisa-da, u ma’muriy va intizomiy jihatdan Hisob palatasiga hisobdor bo’ladi.
- Ex-ante nazorat. Mablag’lar sarflanishi jarayonida, ya’ni to’lov amalga oshirilishidan oldin xavflarni aniqlash va ularning oldini olish imkoniyati yaratiladi.
- Eksperiment muddati. Tizim 2030-yil 1-yanvargacha tajriba tariqasida joriy etilib, uning samaradorligi doimiy monitoring asosida baholab boriladi.

3.3. Texnologik transformatsiya: kosmik monitoring va sun’iy intellekt

PF–252-son Farmon davlat auditini zamonaviy raqamli audit (Digital audit) bosqichiga olib chiqishga xizmat qilmoqda. Tadqiqot natijalari ushbu jarayon quyidagi texnologik imkoniyatlar orqali amalga oshirilayotganini ko’rsatadi:

- Masofaviy nazorat. 2026-yildan boshlab avtomobil yo’llari qurilishi hamda suv xo’jaligi obyektlarida bajarilgan ish hajmlari kosmik tasvirlar va dron texnologiyalari yordamida tahlil qilinadi. Bu esa obyektga bormasdan turib bajarilgan ishlarning haqiqiylikini baholash imkonini beradi.
- Sun’iy intellekt va Big Data. Davlat xaridlari hamda byudjet tranzaksiyalari yagona elektron platformaga integratsiya qilinadi. Sun’iy intellekt algoritmlari potensial xavfli yoki shubhali operatsiyalarni aniqlash orqali nazorat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

3.4. Institutsional kadrlar zaxirasi: Davlat auditi oliy maktabi

Audit tizimi samaradorligini oshirishda inson kapitali muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzurida Davlat auditi oliy maktabining tashkil etilishi kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur tizim quyidagi yo’nalishlarni qamrab oladi:

- Xalqaro ta’lim dasturlari. O’quv jarayoniga dunyoning yetakchi Top–300 universitetlari tajribasiga asoslangan o’quv dasturlarini tatbiq etish;

5 O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 18.12.2025 yildagi PF-252-son <https://lex.uz/uz/docs/-7926706>



• Xalqaro sertifikatlash. Bitiruvchilarning nafaqat milliy, balki ACCA hamda CIA (Certified Internal Auditor) kabi xalqaro professional sertifikatlarga ega bo'lishi audit tizimining professional darajasini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–252-son Farmoni⁶ bilan joriy etilayotgan o'zgarishlar nafaqat texnik, balki konseptual xarakterga ham ega. Mazkur bo'limda amalga oshirilayotgan islohotlarning ilmiy va amaliy jihatdan muhim bo'lgan asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi.

4.1. Samaradorlik auditi (Performance Audit) va an'anaviy nazorat yondashuvlari

Yaqin yillargacha O'zbekistonda davlat auditi tizimi asosan moliyaviy muvofiqlik auditi (compliance audit) bilan cheklangan bo'lib, mablag'larning hujjatlar asosida to'g'ri sarflanishi asosiy mezon sifatida qaralib kelgan.

PF–252-son Farmon bilan joriy etilayotgan samaradorlik auditi (performance audit) esa davlat moliya boshqaruvida “3E” tamoyili — Economy, Efficiency va Effectivenessni ustuvor mezon sifatida ilgari suradi. Mazkur yondashuv auditorlik faoliyatining mazmunini kengaytirib, nafaqat mablag'larning qonuniy sarflanishini, balki ularning ijtimoiy-iqtisodiy natijadorligini ham baholash imkonini yaratadi.

Masalan, yangi qurilgan maktab binosi qurilishiga ajratilgan mablag'larning nafaqat texnik jihatdan to'g'ri sarflanishi, balki ushbu investitsiya natijasida ta'lim sifati va ijtimoiy samaradorlikning qanchalik oshgani ham tahlil qilinadi. Bunday yondashuv davlat organlari rahbarlarining boshqaruv qarorlaridagi mas'uliyatini yanada kuchaytiradi hamda davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

4.2. “Bosh inspektor” institutining mustaqilligi va institutsional muvozanat

Davlat boshqaruvi tizimida ichki nazorat mexanizmlarining mustaqilligi muhim ilmiy va amaliy masalalardan biri hisoblanadi. PF–252-son Farmon⁷ ushbu masalani institutsional jihatdan takomillashtirish maqsadida “Bosh inspektor” institutini joriy etishni nazarda tutadi.

Mazkur modelga ko'ra, Bosh inspektorlar vazirlik va idoralarda faoliyat yuritsalar-da, ularning ma'muriy va intizomiy bo'ysunuvi bevosita Hisob palatasiga birlashtiriladi. Bu esa nazorat organlari faoliyatining mustaqilligini mustahkamlash hamda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, Farmonda Bosh inspektorlarning professional faoliyatini yanada samarali tashkil etish maqsadida ularni har uch yilda rotatsiya qilish, shuningdek, ayrim nazorat jarayonlarini masofaviy monitoring orqali kuzatish kabi mexanizmlar ham nazarda tutilgan. Ushbu yondashuv davlat boshqaruvi tizimida shaffoflikni mustahkamlash hamda samarali nazorat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

4.3. Raqamlashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari

Davlat auditi tizimida kosmik monitoring va sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi nazorat jarayonlarini modernizatsiya qilishning muhim bosqichidir. Raqamli texnologiyalar nazorat jarayonlarida inson omilini kamaytirish bilan birga, tahlilning tezligi va aniqligini oshirish imkonini beradi.

Biroq raqamli tizimlarning samaradorligi, avvalo, ma'lumotlar bazasining to'g'ri shakllantirilishi bilan bevosita bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, “GIGO” (Garbage In – Garbage Out) tamoyili, ya'ni kiritilgan ma'lumotlarning sifati yakuniy natijalarga bevosita ta'sir qilishi ilmiy adabiyotlarda keng ta'kidlanadi.

Farmonda 2027-yilga qadar davlat boshqaruvi tizimidagi barcha axborot tizimlarini integratsiya qilish vazifasining belgilanishi aynan ushbu jarayonni samarali tashkil etishga qaratilgan. Masalan, kosmik monitoring yordamida yo'l qurilishi jarayonlarini nazorat qilish nafaqat nazorat ko'lamini kengaytiradi, balki audit jarayoniga sarflanadigan vaqt va tashkiliy xarajatlarni sezilarli darajada optimallashtirish imkonini yaratadi.

4.4. Kadrlar salohiyati: Davlat auditi oliy maktabining roli

Davlat auditi tizimini modernizatsiya qilish jarayonida inson kapitali hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xalqaro audit standartlari — xususan ISSAI — auditorlardan yuqori darajadagi analitik tafakkur, statistik tahlil ko'nikmalari hamda zamonaviy boshqaruv metodologiyalarini talab qiladi.

Shu munosabat bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzurida Davlat auditi oliy maktabining tashkil etilishi kadrlar tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqadi. Mazkur ta'lim muassasasi xalqaro auditorlik amaliyotini milliy ta'lim tizimi bilan uyg'unlashtirish, shuningdek ACCA va CIA (Certified Internal Auditor) kabi xalqaro professional sertifikatlash dasturlarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish orqali yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Natijada, mazkur tashabbus O'zbekiston Respublikasining audit sohasidagi ilmiy va amaliy salohiyatini mustahkamlash hamda mamlakatni mintaqaviy auditorlik markazlaridan biriga aylantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 18.12.2025 yildagi PF-252-son <https://lex.uz/uz/docs/-7926706>

7 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 18.12.2025 yildagi PF-252-son <https://lex.uz/uz/docs/-7926706>



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–252-son Farmoni⁸ mamlakat iqtisodiyotida shaffoflikni ta'minlash hamda davlat mablag'lari sarfi ustidan nazoratning zamonaviy va samarali modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda. O'tkazilgan tizimli tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

1. Strategik mustaqillik. Hisob palatasining xalqaro tashqi baholashdan (Peer Review) o'tkazilishi milliy audit tizimining xalqaro miqyosda tan olinishini ta'minlaydi hamda O'zbekiston Respublikasining investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

2. Preventiv yondashuv. Vazirlik va idoralarda "Bosh inspektor" lavozimining joriy etilishi nazorat tizimini "post-faktum" (voqeadan keyingi nazorat) shaklidan "on-line" (jarayon davomida nazorat) mexanizmiga o'tkazishga imkon yaratadi. Bu esa byudjet mablag'laridan foydalanish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy xatarlarni erta aniqlash hamda mablag'larning maqsadli sarflanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

3. Texnologik ustunlik. Kosmik monitoring va sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi audit jarayonlarining raqamlashtirilishini ta'minlab, nazorat mexanizmlarining aniqligi va xolisligini sezilarli darajada oshiradi. Natijada auditorlik tekshiruvlari yanada tezkor va samarali amalga oshiriladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

- Ma'lumotlar ochiqlikni kengaytirish. Davlat siri bilan bog'liq bo'lmagan audit hisobotlarini jamoatchilik uchun ochiq elektron platformalarda e'lon qilib borish maqsadga muvofiq. Bu esa jamoatchilik nazorati mexanizmlarini mustahkamlash hamda davlat boshqaruvida shaffoflikni yanada oshirishga xizmat qiladi.

- Sertifikatlash tizimini rivojlantirish. Bosh inspektorlar va davlat auditorlari uchun professional tayyorgarlikni kuchaytirish maqsadida xalqaro (ACCA, CIA) hamda milliy auditorlik sertifikatlarini olish tizimini bosqichma-bosqich keng joriy etish zarur.

- Ekologik audit yo'nalishini rivojlantirish. Kelgusida Farmonda nazarda tutilgan samaradorlik auditi (performance audit) doirasida iqlim o'zgarishi, ekologik barqarorlik hamda yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlarini ham byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini baholash mezonlari sifatida joriy etish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, PF–252-son Farmon⁹ asosida amalga oshirilayotgan institutsional va texnologik islohotlar davlat auditi tizimini yanada takomillashtirish, moliyaviy nazorat samaradorligini oshirish hamda davlat boshqaruvida shaffoflikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrda "Davlat auditi va moliyaviy nazorati faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF–252-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/uz/docs/-7926706>
2. INTOSAI P–10 (Mexico Declaration on SAI Independence). International Organization of Supreme Audit Institutions (INTOSAI) Standards.
3. ISSAI 300: Fundamental Principles of Performance Auditing. International Standards of Supreme Audit Institutions.
4. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "Tasvir", 2022.
5. "Raqamli audit va moliya nazorati: zamonaviy tendensiyalar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2025-yil.
6. World Bank. Public Financial Management Assessment (PEFA) Report on Uzbekistan. – Washington, DC, 2025-yil.

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 18.12.2025 yildagi PF-252-son <https://lex.uz/uz/docs/-7926706>

9 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 18.12.2025 yildagi PF-252-son <https://lex.uz/uz/docs/-7926706>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
